

### **Vazir maslahatchisining asosiy vazifalari:**

vazirlik tizimida ma'naviy-ma'rifiy soxaga va davlat tiliga oid qonun hujjatlariga soʻzsiz rioya etilishini tashkil etish, javobgarlik sohasidagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tanqidiy oʻrganib, bu boradagi kamchilik va muammolarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish hamda davlat tilini rivojlantirishga oid qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonida faol ishtirok etish;

vazirlik tizimida foydalaniladigan tashqi yozuvlar, shu jumladan lavhalar, e'lonlar, koʻrgazmali matnlarning qonun hujjatlariga muvofiqligini tashkil etish;

vazirlik tizimida davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qoʻllab-quvvatlash, ilmiy asoslangan yangi soʻz va atamalarni amalga kiritish, zamonaviy atamalarning oʻzbek tilidagi muqobil shakllarini yaratish boʻyicha takliflar kiritishdan iborat.

### **Shuningdek:**

vazirlik tizimida idoraviy hujjatlar ishlab chiqilishida davlat tili toʻgʻrisidagi qonunga qatʼiy rioya etilishini;

vazirlik rahbariyatining ma'naviy-ma'rifiy sohani va davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan buyruq, qaror va koʻrsatmalari ijrosi holatini;

vazirlik tizimida tuzilmalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish hamda davlat tilini rivojlantirishga oid tadbirlarning belgilanishi, sifatli va puxta ijro etilishini nazorat qiladi.

### **Bundan tashqari:**

vazirlik tizimida mas'ul xodimlarning ma'naviy va ma'rifiy soha hamda oʻzbek tilini oʻrganish yuzasidan malaka oshirishini tashkillashtirish;

vazirlik tizimi sohasiga oid xalqaro soʻz va atamalarning davlat tilidagi muqobilini yaratish;

konsepsiya, davlat dasturlari loyihalariga oʻzbek tilini rivojlantirish va h.k. masalalar boʻyicha takliflar kiritadi.